OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
__________________ B. Axmedov
"___" __________ 2025-yil

"IJTIMOIY FANLAR" KAFEDRASI

# SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI, METODI VA TEXNIKASI FAN SILLABUSI (STM1312 )

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | **300000 – Ijtimoiy fanlar** |
| **Ta'lim sohasi:** | **310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar** |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | **60310400 – Sotsiologiya** |
| **Semestr** | **3-4** |
| **Kredit miqdori** | **12** |

**ANDIJON – 2025**

© Ushbu hujjat Andijon davlat universiteti mulki hisoblanadi va uni oluvchilar uchun maxfiy bo‘lib, to‘liq yoki qisman nusxa ko‘chirilishi, tarqatilishi yoki ko‘paytirilmasligi yoki uchinchi shaxslarga berilmasligi kerak. Ushbu materialni ko‘paytirish, tarqatish, nusxalash, oshkor qilish, o‘zgartirish, tarqatish yoki nashr etishning har qanday shakli qat’iyan man etiladi.

| Kun | |
|---|---|
| Avgust 2025 | Ushbu sillabus Andijon davlat universiteti kengashining 2025-yil “___”-______ dagi ____-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan. |
| | [1] Dunyodagi eng yaxshi 300 ta universitetning xalqaro reytingida"ARWU World University Rankings 2024"da 97 –o’rinda turgan MDU sillabusidan foydalanildi. https://www.socio.msu.ru/documents/bs19_310p.pdf<br>**Tuzuvchi:**<br>Yunusov Kamaldin Abzalovich. — “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi professori v.b., siyosiy fanlari doktori (DSc). |
| | **Taqrizchilar:**<br>1.Yunusova M.P. – Andijon davlat universiteti, Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri, f.f.d. professor.<br>2. N.A.Xushvaqova – Andijon viloyati hokimligi huzuridagi fuqarolarni o’zini o’zi boshqarish organlari hodimlarini malakasini oshirish markazi direktori s.f.f.d.,(PhD). |

## MUNDARIJA

**STA1110:SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI, METODI VA TEXNIKASI**

**1. Fan tavsifi ........................................ 4**
**2. Fanning dastlabki rekvizitlari ........................................ 4**
**3. Fanning maqsadi ........................................ 4**
**4. Ta’lim berish natijalari ........................................ 4**
**5. Ta’lim berish usullari ........................................ 5**
**6. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar ........................................ 5**
**7. Adabiyotlar ........................................ 6**
**8. Soatlar/Kreditlar ........................................ 8**
**9. Fanning tarkibiy tuzilishi ........................................ 8**
**10. Talabalar bilimini baholash ........................................ 10**
**11. Akademik talablar ........................................ 11**

## Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi va texnikasi. (STA1110)

## 1. Fan tavsifi

"Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi va texnikasi" fanida har bir umumiy sotsiologiyadan o'rin olgan sotsiologiya fanining muhim jihati xisoblanib, Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi va texnikasiga oid ma'lumotlarni o'rganishdan iborat.

Sotsial voqelikni empirik sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilish, jamiyatdagi voqea, jarayon va hodisalarni amaliy tadqiqot metodlari asosida tadqiq qilish, nazariy sotsiologiya va amaliy sotsiologik tadqiqot o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, mustaqil sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilish, o'tkazish, olingan ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish, amaliy taklif va tavsiyalarni ilgari surish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Ayniqsa, O'zbekistonda, "Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi va texnikasi" fanining o'ziga xos jihatlarini, empirik sotsiologik tadqiqotlarni olib borish muhim xisoblanadi. Ushbu fan ikkinchi kursning uchinchi va to'rtinchi semestrida o'qitilishi rejalashtirilgan. Ushbu fanning maqsadi – "Sotsiologiya " ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarning kasbiy saloqiyatini ta'minlovchi fanning nazariy asoslari bo'yicha bilimini oshirish, kelgusi amaliy faoliyatda sotsiolog olimlar tajribalari asosida ish yuritish bo'yicha hamda Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi va texnikasiga oid muhim nazariy va amaliy faoliyat to'g'risidagi bilimlarni shakllantirilishini ta'minlashdan iborat.

Fanning vazifasi va uni o'qitishdan maqsad – mazkur fan talabalarga empirik sotsiologik tadqiqotlar to'g'risida to'la tasavvur beradi va olingan bilimlar asosida konkret sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga tadqiqot dasturi tuzish, ma'lumotlarni qayta ishlash va olingan ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Sotsiologiya fanining shakllanish evolyutsiyasi, uning nazariy-g'oyaviy asoslarini o'zlashtirish hamda zamonaviy sotsiologik nazariyalar uchun muhim manba sifatida o'tmish ajdodlar ta'limotlaridan yetarli xabardor bo'lish; talabalarda sotsiologik bilimni dastlabki manbalar yordamida o'zlashtirishni ta'minlash; sotsiologik ta'limotlarning nazariy asoslari tarixini amaliy tadqiqotlar (qujjatlarni o'rganish) asosida ilmiy tushunib yetishni tashkil etish; tarixiy sotsiologik manbalardan unumli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

## 2. Fanning dastlabki rekvizitlari

Ushbu fan uchun tarix sotsiologiya tarixi (ST 113), umumiy sotsiologiya (US110), Oila va gender sotsiologiyasi (OGS111), Shaxs sotsiologiyasi va deviant xulq-atvor (SHSDXA 112) kabi fanlarga oid bilimlarni egallashi lozim bo'ladi.

## 3. Fanning maqsadi

Talabalarda sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi va texnikasi sotsiologiyasiiga oid quyidaga mavzularda chuqur bilimlarni xosil qilishdan iborat. Bular quyidagilardan iborat.

Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi, texnikasi va protsedurasi
Sotsiologik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari
Sotsiologik tadqiqotlarning turkumlanishi
Sotsiologik tadqiqot dasturi va uning tarkibiy elementlari
Sotsiologik tadqiqot muammosi va strategik rejasini asoslash.
Sotsiologik tadqiqotda gipotezalar. Gipotezalar ilgari surish protsedurasi.
Asosiy tushunchalar interpretatsiyasi va operatsionalizatsiyasi .
Sotsiologik tadqiqotlarda shkalalar.
Sotsiologik tadqiqotda tanlash metodi.
Sotsiologik tadqiqotning tashkiliy protsedurali rejasi.
Ma’lumotlar yig‘ish metodlari tasnifi.
So‘rov metodi, anketa (so‘rov varaqasi) orqali so‘rov o‘tkazish.
Pochta va telefon orqali so‘rov o‘tkazish. Pochta va telefon orqali so‘rov o‘tkazish
Pochta va telefon orqali so‘rov o‘tkazish.Fokus-guruh.
Ekspert-so‘rovi.Marketing tadqiqotlarda sotsiologik metodlar.
Siyosiy tadqiqotlar.Hujjatlarni tahlil qilish metodi.
Hujjatlarni tahlil qilish metodi turlari va protsedurasi.
Kontent-analiz metodi.Kuzatish metodi.Kuzatish turlari va uning protsedurasi.
Sotsiologik tadqiqotlarda test.Sotsiologik tadqiqotlarda test.
Sotsiologik tadqiqotlarda biografik metodlar.Internet tadqiqotlar.
Sotsiologik tadqiqotlarda keys-stadi (case-study).

## 4. Ta’lim berish natijalari

Ushbu fanni muvaffaqiyatli tugatib, talabalar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi:

1. sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi va texnikasiga oid ilmiy, ijtimoiy-tarixiy jarayonlar, empirik sotsiologik tadqiqotlarga oid ilmiy-nazariy qonuniyatlari to‘g‘risidagi bilimlarni egallashdan iborat.

2 Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi va texnikasi bilan bog‘liq jamiyatning dinamik jarayonlari, tarixiy rivojlanish bosqichlari, effektlari va ularning namoyon bo‘lish mexanizmlarini anglaydilar.

3. Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi va texnikasi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarini tahlil etish, ularning sabablarini o‘rganish hamda to‘g‘ri xulosa chiqara oladilar.

4. Ijtimoiy munosabatlar va konfliktlarni o‘rgana oladi va yuzaga kelgan, mavjud ijtimoiy munosabatlar hamda konfliktlarni bartaraf eta oladilar.

5. Sotsial jarayonlarni tahlil etishda sotsiologik tadqiqot metodlaridan samarali foydalana oladilar.

– sotsiologik tadqiqotning mohiyati va mazmuni; sotsiologik tadqiqot bosqichlari va turlari; sotsiologik tadqiqot dasturi, uning tarkibi; gipoteza, uning turlari, gipotezani ilgari surish; tanlash, tanlash me'zonlari, tanlash turlari; o'lchash va shkalalar; birlamchi ma'lumotlar to'plash metodlari; ma'lumotlar to'plashning miqdoriy va sifatiy metodlari haqida tasavvurga ega bo'lishi;

– tadqiqot dasturini tuzishni; tadqiqot muammosini nazariy tahlil qilishni; tadqiqot byudjeti hisob-kitobini tuzishni; strategik rejani ishlab chiqishni; sotsiologik tadqiqotning tashkiliyprotsedurasini ishlab chiqishni; tanlashni amalga oshirishni; yo'nalish xaritasi tuzish va undan foydalanishni; so'rov varaqasi tuzishni;so'rov varaqasi orqali tadqiqot o'tkazishni; intervyu kartochkasini yaratishni; respondentlar bilan intervyu o'tkazishni; hujjatlar mazmunini tahlil qilishni;kuzatishni tashkil qilish va uni amalga oshirishni; kuzatish varaqasi tuzishni; sotsiometrik varaqa (anketa) tuzishni bilishi va ulardan foydalana olishi;

– sotsiologik tadqiqot o'tkazish; sotsial monitoring olib borish; tashkilot, muassasa, korxonalar bilan sotsiologik tadqiqot o'tkazish uchun buyurtmalar olish; sotsiologik tadqiqotlar asosida bashorat qilish va loyihalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

| SHAKLLANGAN VAKOLATLAR (KOMPETENTLIK KODI) | Kompetentsiyani shakllantirish bosqichlarini tavsiflovchi fan (modul) bo'yicha rejalashtirilgan o'quv natijalari |
|---|---|
| UK-1 zamonaviy ilmiy yutuqlarni tanqidiy tahlil qilish va baholash, tadqiqot va amaliy muammolarni hal qilishda, shu jumladan fanlararo sohalarda yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati | 1. Zamonaviy ilm-fan yutuqlarini tanqidiy tahlil qilish va baholash usullarini, shuningdek, tadqiqot va amaliy muammolarni hal qilishda, shu jumladan fanlararo sohalarda yangi g'oyalarni shakllantirish usullarini bilish.<br>2.Tadqiqot va amaliy muammolarning muqobil yechimlarini tahlil qila olish va ushbu variantlarni amalga oshirishda mumkin bo'lgan foyda / yo'qotishlarni baholay olish.<br>3. Mavjud manbalar va cheklovlar asosida tadqiqot va amaliy |

| | |
|---|---|
| | muammolarni hal qilishda amaliyotga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan yangi g'oyalarni yaratish imkoniyatiga ega bo'lish |
| OPK-5 jarayonlar, hodisalar va ob'ektlarni modellashtirishning zamonaviy usullaridan, matematik usullar va vositalardan foydalangan holda mustaqil ravishda ilmiy sotsiologik tadqiqotlar olib borish qobiliyati | 1.Ijtimoiy jarayonlar, hodisalar va ob'ektlarni modellashtirishning zamonaviy usullarini, shuningdek, ilmiy sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishning matematik usullari va vositalarini bilish.<br>2.Zamonaviy tadqiqot usullarini mustaqil tadqiqot faoliyatida qo‘llay olish. |

## 5. Ta’lim berish usullari

– real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;

– esse, tezis va maqolalar yozish;

– vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;

– jarayonli-yo‘naltirilgan ta’lim;

– muhokamalarda ishtirok etish;

– kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish;

– loyiha ishini bajarish;

– mustaqil ishlarni bajarish;

– taqdimot tayyorlash;

– turli darajadagi testlarni yechish;

– so‘rov va boshqa empirik sotsiologik tadqiqot metodlaridan foydalangan va ularni qo‘llagan holda empirik sotsiologik tadqiqtlar o‘tkazish ( Yangilanayotgan O‘zbekistonda jamiyat hayotining barcha sohalari bo‘yicha sotsiologik ma’lumotlarni tadqiq etish);

## 6. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

1. Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:
Ijtimoiy tadqiqotlar va sotsiologik tadqiqotlar: umumiylik va tafovut
2. Ilmiy so‘rov belgilari
3. Tasodifiy va notasodifiy tanlov
4. Anketali so‘rov varaqasi kompozitsiyasi
5. Intervyuda moderator startegiyasi
6. Shaxsiy intervyu (face-to-face)
7. Kabinet so‘rovlari (Desk Research)
8. VALS Survey so‘rov varaqalari (online version)

9. Ekspert so‘rov metodologiyasi
10. Nooddiy ekspertlar
11. Praymeriz
12. Sotsiologiyaning hujjatli manbalari
13. Sotsiodramaturgik va etnometodologik eksperimentlar
14. Action research
15. Action research metodlari
16. Sotsiometrik protseduralar
17. Gellap instituti
18. Konsalting tashkilotlar
19. Sotsiologik tadqiqotning tashkiliy protsedurali rejasi
20. Nuqtali va qayta tadqiqotlar
21. Operativ tadqiqotlar
22. Ideal va real tanlanma yig‘indi
23. Tanlanma yig‘indi pasportichkasi
24. Anketali so‘rovnomada “ism effekti”
25. Sotsiologik tadqiqotlarda buyurtma va buyurtmachi
26. Marketing tadqiqot natijalarini qo‘llash sohalari
27. Sotsial ma’lumotlar yig‘ish va qayta ishlashning metod, metodika va texnik vositalarini tanlash
28. Hujjatlarni formal tahlil qilishning metodologik masalalari.
29. Jamoatchilik fikrini o‘rganishda kontent-analiz metodlaridan foydalanishning afzalliklari
30. Biografik tadqiqotlarda narrativ hikoya metodini qo‘llash
31. Ekspert baholari validligi omillari
32. Siyosiy tadqiqot natijalarini tahlil qilish va qo‘llash tartibi
33. Kontent-analizni amalga oshirish metodikasi
34. Sotsiologik va jurnalistik intervyuning xarakterli xususiyatlari
35. Fokuslashgan intervyu va fokus-guruh
36. Marketing tadqiqotlarda reprezentativlikni ta’minlash muammolari
37. Sotsiologik so‘rov varaqasi (anketa) so‘rovning asosiy instrumenti sifatida
38. Sotsiologik tadqiqotlarda tanlashlarning matematik tahlili
39. Birlamchi o‘lchov protsedurasining tekshirishda ishonchlilik usullari
40. Hujjatlarni klassik tahlil qilish turlari
41. Sotsiologik tadqiqotda tushunchalarning operatsionalizatsiyasi chegaralari
42. Tadqiqot muammosi turlari va sotsiologik tadqiqot dasturida ularni formallashtirish yo‘llari

43. O‘lchash etalonlarini izlash

44. Monogrifik va tanlanma tadqiqot

45. Sotsiologik tadqiqotlarning tasniflash mezonlari va asosiy turlari

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

## 7. ADABIYOTLAR

### Asosiy adabiyotlar

1. Shyermuxammedova N. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi -T.: 2006. 24-230 betlar.

2. V. Alemasov, sh. Mamadaliyev. Ilmiy tadqiqot: metodologiya, metodika, ijodiyot. o‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 102 b.

3.Averin YU.P. Teoreticheskoye konstruirovaniye kolichestvennogo sotsiologicheskogo issledovaniya. M., 2014.

3. Dobrenьkov V.I., Kravchenko A.I. Metodologiya i metodika sotsiologicheskogo issledovaniya. M., 2009.

4. Dyurkgeym E. Metod sotsiologii. M., 1991.

5. Yadov V.A. Strategiya sotsiologicheskogo issledovaniya. M., 2011.

### Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. “Niyati ulug` xalqning ishi ham ulug`, hayoti yorug` va kelajagi farovon bo`ladi” - Toshkent.; O`zbekistan nashriyoti. 2019 yil

2 Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz - Toshkent.; O`zbekistan nashriyoti. 2017

3. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarni ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent.;O`zbekistan nashriyoti. 2017 yil

4 Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon demokratik O`zbekistan davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent.; O`zbekistan nashriyoti.2017 yil

5.Mirziyoev SH.M. Tanqidiy taxlil qat`iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi Bo`lishi kerak.-Toskent .; O`zbekistan nashriyoti. 2017 iil

6. Carr A. Family Therapy. Concepts, Process and Pract.ce. Second Edition. - John Wiley & Sons Ltd, 2006. — 649 p.

7. Belanovskiy S.A. Glubokoe intervyu. Uch. posobie. - Moskva.: Nikkolo-Media, 2001.

8. Maslennikov YE.V. Ekspertnoe znanie: Integratsionnыy podxod i yego prilojenie v sotsiologicheskom issledovanii. - Moskva., 2001.

9. Moreno Dj. Sotsiometriya: eksperimentalnыy metod i nauka ob obществe. – Moskva.,2001.

### Axborot manbalari

1. https://prezident.uz
2. https://www.gov.uz
3. http://lex.uz
4. http://uza.uz
5. http://ziyonet.uz
6. https://edu.uz
7. https://minsport.uz
8. https://sportedu.uz
9. www.irbvatch.org.
10.www.vebsm.org
3. www.Treatment.org
4. www.thoughtfield.com
5. http:// www.pollster.com
6. www.gallup.com
7. www.streamlinesurveys.com
8. www.zogby.com
9. www.knovledgenetvorks.com
10. www.harrisinteractive.com
11. www.smshavaii.com
12. www.vorldopinion.com
13. www.surveymonkey.com
14. www.srl.uic.edu
15. http://v4.ub.uni-konstanz.de

## 6. Soatlar/Kreditlar

Ikkinchi semestr kredit modul miqdori – 6 ECTS
Ikkinchi semestr kredit modul miqdori – 6 ECTS

| **Ta’lim turi** | **Ma’ruza** | **Amaliy mashg‘ulot** | **Laboratoriya** | **Mustaqil ta’lim** | **Jami** |
|---|---|---|---|---|---|
| Kunduzgi | 36 | 36 | 0 | Mustaqil ta’lim: (I-semestr-108 | 210 |
| | 36 | 36 | 0 | soat, II semestr soat.108 | |
| **Yillik, jami** | **72** | **72** | **0** | **216** | **360** |

## 9. Fanning tarkibiy tuzilishi

| T/r | Mavzular | Ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlar rejasi | Soatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | Ma’ruza mashg‘ulotlari | amaliy mashg‘ulotlari | Mustaqil ta’lim |
| **I semestr** | | | | | |
| 1. | **Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi, texnikasi va protsedurasi** | *Reja: 1.Sotsiologik tadqiqot jarayonining asosiy tushunchalari: metodologiya, metodika, texnika, protsedura.*<br>*2.Tadqiqot metodologiyasi va metodini aniqlash, ularning o‘xshashligi va farqlari.*<br>*3. Metod va metodologiyatushunchalarining aloqasi.*<br>*4.Protsedura texnik usulvaoperatsiyalarketma-ketliginimantiqiytuzilishisifatida.* | 4 | 4 | 6 |
| 2. | **Sotsiologik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari** | *Reja:1.Sotsiologik tadqiqot” tushunchasi, sotsiologik bilish tizimida uning funksiyalari.*<br>*2.Sotsiologik tadqiqotlarning amaliy qo‘llanishi. Sotsiologik tadqiqot bosqichlari to‘g‘risidagi turli qarashlar. 3.Tayyorlov bosqichi; dala ishlari; ma’lumotlarni qayta ishlash; hisobot yozish. Asosiy harakat turlari: tadqiqot dasturini tayyorlash, ma’lumotlar yig‘ish, ma’lumotlar tahlili. 4.Sotsiologik tadqiqotlarning tasniflash mezonlari va asosiy turlari. Fundamental, amaliy, kompleks tadqiqotlar.* | 4 | 4 | 6 |
| 3. | **Sotsiologik tadqiqotlarning turkumlanishi** | ***Reja:*** *1.Sotsiologik tadqiqotlarning 3 asosiy turlari: I. Razvedkali tadqiqotlar. Foydalanish sohasi, asosiy vazifalari. 2.Ekspress tadqiqot razvedkali* | 2 | 2 | 6 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | *tadqiqotning turi sifatida. Jamoatchilik fikrining vazifalari.*<br>*3.Tadqiqotning bu turida ma’lumotlar yig‘ish metodlari.* | | | |
| 4. | **Sotsiologik tadqiqot dasturi va uning tarkibiy elementlari.** | ***Reja:*** *1.Dastur - sotsiologik tadqiqotning asosiy xujjati sifatida. 2.Dastur - yangi sotsial bilim olishning yo‘llari, yondashuvlarini nazariy ishlab chiqish sifatida. Dastur tushunchasi, sotsiologik tadqiqotda uning o‘rni va ahamiyati.*<br>*3.Dastur vazifalari: metodologik, metodik, bashoratga oid, tashkiliy-texnologik.*<br>*4.Dastur mazmuni: sotsiologik tadqiqotning metodologik, metodik, tashkiliy rejasi.*<br>*5.Tadqiqotning 2 turi va ularga mos keladigian dasturlar.* | 4 | 4 | 6 |
| 5. | **Sotsiologik tadqiqot muammosi va strategik rejasini asoslash.** | ***Reja:*** *1.Sotsial jarayonlar dinamikasini o‘rganish va sotsial qaramaqarshiliklarni yechish zaruriyati – amaliy sotsiologik tadqiqot rivojining asosi sifatida.*<br>*2.Sotsial muammo turlari va muammoli vaziyat belgilari.*<br>*3.Sotsial muammoni tadqiqot muammosi sifatida konseptual asoslash - sotsiologik tadqiqot dasturi tuzishning asosiy vazifasi.*<br>*4.Tadqiqot dasturida muammoni asoslashning xususiyatlari. tadqiqot ob’ekti va predmetini chegaralash. 5.Tadqiqot muammosi turlari va sotsiologik tadqiqot dasturida ularni formallashtirish yo‘llari.* | 2 | 2 | 6 |
| 6. | **. Sotsiologik tadqiqotda gipotezalar. Gipotezalar ilgari surish protsedurasi.** | ***Reja:*** *1.Gipotezalarni ilgari surish protsedurasi. Gipotezalar tasnifi. 2.Tasviriy, tushuntiruvchi, genetik gipotezalar. Asos-gipoteza va oqibatgipoteza.*<br>*3.Gipotezalar tuzishga qo‘yiladigan asosiy talablar. 4.Tadqiqot gipotezasi bilan vazifalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa. 5.Gipotezalarni tekshirishni rejalashtirish va uning keyingi tadqiqot* | 2 | 2 | 6 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | *protseduralarini ishlab chiqishdagi o'rni.* | | | |
| 7. | **Asosiy tushunchalar interpretatsiyasi va operatsionalizatsiyasi .** | ***Reja:*** ***1.****Tadqiqotning konseptual modelidan tadqiqotning predmetli sohalarini tasvirlashga o'tish. 2.Konseptual modelning mantiqiy tahlili, asosiy tushunchalar interpretatsiyasi.*<br>*3.Tayanch tushunchalar bilan tadqiqotning predmetiga tegishil bo'lgan empirik indikatorlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aniqlash.* | 2 | 2 | 6 |
| 8. | **Sotsiologik tadqiqotlarda shkalalar.** | ***Reja:*** *1. Shkala-o'lchov etaloni. O'lchash etalonlarini izlash. Birlamchi o'lchov protsedurasining tekshirishda ishonchlilik usullari. Shkalalarning umumiy tasnifi.*<br>*2.Oddiy nominal shkala.*<br>*3.Birlamchi sotsial tasniflarni belgilashda to'rtta cheklangan kvantifikatsiya.* | 2 | 2 | 6 |
| 9. | **Sotsiologik tadqiqotda tanlash metodi.** | ***Reja:*** *1.Sotsiologiyada tanlash metodini qo'llashning xususiyatlari.*<br>*2.Tanlash metodining mohiyati. 3.Tanlashni amlga oshirish bilan bog'liq tushunchalar: umumiy va tanlanma majmua, tanlash birliklari, tahlil birliklari, dispersiya*<br>*. 4.Tanlashni tashkil etish tamoyillari. Tanlash metodini qo'llashning shartlari. 5.Tanlashni tuzishning asosiy metodlari: ehtimolliy tanlash metodi va qat'iy bo'lmagan tasodifiy metodlar.* | 2 | 2 | 6 |
| 10. | **Sotsiologik tadqiqotning tashkiliy protsedurali rejasi.** | ***Reja:*** *1."Sotsiologik tadqiqotni tashkil etish" tushunchasi. 2.otsiologik tadqiqotni ilmiy tashkil etish – ishonchli ma'lumot olish sharti. 3.Sotsiologik tadqiqotni tashkil etish jarayoni strukturasi: mantiqiy va tashkiliy-protsedurali reja. 4.Sotsiologik tadqiqotni tashkil etish dasturi, uni amalga oshirish, ishchi rejasiga qo'yiladigan talablar.* | 2 | 2 | 6 |
| 11. | **4.Sotsiologik tadqiqotni tashkil etish dasturi, uni amalga oshirish, ishchi** | ***Reja:*** ***1.****Tadqiqotning dala bosqichi. Empirik ma'lumotlarning ahamiyati. 2.Tadqiqotning maqsad va vazifalariga* | 2 | 2 | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **rejasiga qo'yiladigan talablar.** | *ko'ra ma'lumotlar yig'ish metodlarini tanlash.*<br><br>*3.Ma'lumotlar yig'ish metodlarini umumiy tasnifi. Adabiyotlar, hujjatlar, birlamchi ma'lumotlar tahlili. 4.Aksiologik; biografik; kuzatish; ekspert baholash; so'rov; afzalliklarni bilish; kross-madaniy taqqoslash; monografik; juftli taqqoslash metodlari.* | | | 6 |
| 12. | **Ma'lumotlar yig'ish metodlari tasnifi.** | ***Reja:*** *1.So'rov tushunchasi. So'rov ma'lumotlarining sifatiy mezonlari. O'lchov instrumentining ilmiy asoslanganligi.*<br><br>*2.So'rov ko'rinishlari: o'zaro ta'sirning xarakteriga ko'ra o'tkazish joyiga ko'ra, tadqiqotchi bilan respondent o'rtasidagi muloqot vositasiga ko'ra. 3.So'rovning turli turlarnining ustunlik va kamchilik tomonlari.* | 2 | 2 | 6 |
| 13. | **So'rov metodi.** | ***Reja:*** *1.So'rov varaqasi orqali so'rov o'tkazish spetsifikasi birlamchi sotsiologik ma'lumotlar yig'ish metodi sifatida.*<br><br>*2.Anketali so'rov bosqichlari va protseduralari.*<br><br>*3.Anketali so'rovni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlar.*<br><br>*4.Pilotaj tadqiqot tushunchasi. So'rov varaqasini tarqatish va yig'ib olish texnikasi.* | 4 | 4 | 6 |
| 14. | **Anketa (so'rov varaqasi) orqali so'rov o'tkazish.** | ***Reja:*** *1.So'rovning faza va bosqichlariga ko'ra savollarning ketma-ketlik tamoyili.*<br><br>*2.Savol shakllarini tanlash mezonlari, savollar mazmuni.*<br><br>*3.Ochiq savollarni qayta ishlash. Anketada savollarning turli turi va ko'rinishlarini joylashish tamoyili. Maqsadiga ko'ra savol turlari: mazmunli (yoki natijali) va funksional. 4.Funksional-psixologik savollar.* | 2 | 2 | 6 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | *5. Dialog-savollar. Illyustratsiya savollari. Shkalali savollar.* | | | |
| 15. | **Pochta va telefon orqali so’rov o’tkazish.** | ***Reja:*** *1. Pochta orqali so‘rov o‘tkazish anketali so‘rovning bir ko‘rinishi sifatida.*<br>*2.Pochta orqali so‘rov o‘tkazishda tanlashning o‘ziga xosligi. Pochta so‘rovi o‘tkazish orqali olingan ma’lumotlarning ishonchlilik muammosi. Javoblarni olish va uni bartaraf etish muammolari.*<br>*3.Matbuot orqali so‘rov – pochta orqali so‘rov o‘tkazishning ko‘rinishi. 4.Telefon orqli so‘rov o‘tkazish va uning xususiyatlari.Uning ustunlik va kamchiliklari.*<br>*5.Telefon orqali so‘rov o‘tkazishning metodiktashkiliy vazifalari va uning instrumentariysi.* | 2 | 2 | 6 |
| 16. | **Intervyu sotsiologik so‘rov metodi sifatida.** | ***Reja:*** *Intervyu protsedurasida ma’lumotlar olishda sifatiy metodikalarning hukmronligi. Psixoanalitik g‘oyalar erkin intervyu o‘tkazish texnikasini ishlab chiqish uchun nazariy-metodologik asos sifatida. Intervyu mobaynida semantik noaniqlikni bartaraf etish vositalari. Intervyu sotsiolog bilan respondent sotsial-psixologik o‘zaro munosabatining jarayoni sifatida. Suhbat yo‘nalishining texnik usullari va respondentni javob berishga undash. “Intervyuer ta’siri”.Intervyu usuli orqali olingan ma’lumotlarni qayd etish, qayta ishlash va tahlil qilish xususiyatlari.* | 2 | 2 | 6 |
| 17. | **Fokus-guruh.** | ***Reja:*** *1.Fokus-guruh metodining metodologik asoslari.*<br>*2.Fokuslashgan intervyu va fokus-guruh.*<br>*3.Fokus-guruhlarni shakllantirishning umumiy tamoyillari. Fokus-guruhlarni tashkil etish va fokus-guruh natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish.* | 2 | 2 | 6 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | *4.Fokus-guruh natijalarini qayd etish usullari.5.Fokus-guruh natijalarini rasmiylashtirish tartibi.* | | | |
| 18. | **Ekspert-so'rovi.** | ***Reja:*** *1.Ekspert-so'rov metodologiyasi. 2.Ekspert so'rov turlari.*<br>*3.Ekspertlarni tanlash.*<br>*4.Ekspert baholari validligi omillari. Ekspet so'rovi metodini qo'llash murakkabliklari.*<br>*5.Ekspert so'rovi natijalarini rasmiylashtirish talablari.* | 2 | 2 | 6 |
| 19. | **Marketing tadqiqotlarda sotsiologik metodlar.** | ***Reja:*** *1. Marketing tadqiqotlarning maqsad-vazifalari.*<br>*2.Marketing tadqiqotlarda reprezentativlikni ta'minlash muammolari.*<br>*3.Brif va brifing. Marketing tadqiqot turlari*<br>*.4. Marketing tadqiqot natijalarini qo'llash sohalari.* | 2 | 2 | 6 |
| 20. | **Siyosiy tadqiqotlar.** | ***Reja:*** ***1.****Sotsiologik tadqiqot metodlaridan siyosiy jarayonlarni o'rganishda foydalanish xususiyatlari. 2.PR –texnologiyalar. Praymeriz. 3.Exit-Poll. Siyosiy reyting. 4.Siyosiy tadqiqot natijalarini tahlil qilish va qo'llash tartibi.* | 2 | 2 | 6 |
| | | **II semestr** | | | |
| 21. | **Hujjatlarni tahlil qilish metodi.** | ***Reja:*** *1.Hujjatlar sotsiologik ma'lumotlarning eng muhim manbai sifatida.*<br>*2.Sotsiologiyada hujjat tushunchasi. 3.Hujjatlar tasnifi: ma'lumotlarni qayd etilishiga ko'ra; ma'lumotlarni olish usuliga ko'ra; mualliflik xarakteriga ko'ra; ma'dumotlarga "yaqinlik" darajasiga ko'ra.*<br>*4.Yozma hujjatlar.* | 2 | 2 | 6 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | *4.Ikonografik hujjatlar (kino-video va fotohujjatlar). 5.Sotsiologik tadqiqotlarda hujjatlarni tahlil qilish metodidan foydalanishning ustunlik va kamchilik tomonlari.* | | | |
| 22. | **Hujjatlarni tahlil qilish metodi turlari va protsedurasi.** | ***Reja:*** *1.An'anaviy formallashgan. 2.Hujjatlarni tahlil qilishning an'anaviy usullarining umumiy tavsiflari: matnlarning ko'p qirraligi, hujjatlar mazmuni va yaratish maqsadlari. 3.Hujjatlarni klassik tahlil qilish turlari. 4.Hujjatlarni tahlil qilish metodi bilan boshqa birlamchi ma'lumotlar to'plash metodlari o'rtasidagi nisbat. .5.Hujjatlarni ichki va tashqi tahlil qilish. Huquqiy va psixologik tahlil.* | 2 | 2 | 6 |
| 23 | **Kontent-analiz metodi.** | ***Reja:*** *1.Kontent analiz hujjatlarlarni formal tahlil qilish vositasi sifatida. 2.Sotsiologik tadqiqotda bu metoddan foydalanish imkoniyatlari. 3.Hujjatlarni formal tahlil qilishning metodologik masalalari. 4.Kontent-analiz mohiyati, uning umumiy tavsifi, kuchli va kuchsiz tomonlari. 5.Kontent-analizni amalga oshirish metodikasi. 6.Hujjatlarni tanlash va hujjat tipidagi ma'lumotlarning sifati. Jamoatchilik fikrini o'rganishda kontent-analiz metodlaridan foydalanishning afzalliklari.* | 4 | 4 | 6 |
| 24. | **Kuzatish(Monitoring) metodi.** | ***Reja:*** *1.Ijtimoiy fanlarda kuzatish metodi. 2.Kuzatish metodining mazmun mohiyati. 3.Ilmiy kuzatishning alohida belgilari.4.Sotsiologik kuzatish xususiyatlari.* | 2 | 2 | 6 |
| 25. | **Kuzatish turlari va uning protsedurasi** | ***Reja:*** *1.Kuzatish turlari. 2.Rasmiylashtirilgan kuzatish.*<br>*3.Ichki va tashqi kuzatish. Ichki anonim kuzatish.*<br>*4.Kuzatish metodining yutug'i va kamchiliklari.*<br>*5.Kuzatish metodida kuzatuvchining roli.* | 2 | 2 | 6 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 26. | **Sotsial eksperiment.** | *Reja: 1. Ilmiy eksperiment xususiyatlari.*<br><br>*2. Sotsial eksperiment metodologiyasi va metodikasi.*<br><br>*3. Eksperiment o'tkazish protsedurasi.*<br><br>*4. Eksperimentni tashkil etish va o'tkazish murakkabliklari.* | 2 | 2 | 6 |
| 27. | **Sotsiologik tadqiqotlarda test.** | ***Reja: 1.****Test metodologiyasi. 2.Testlarni turkumlash. 3.Sotsiometrik protseduralar. 4.Test texnologiyasi. 5. Kompyuter testlari. 6.Test natijalarini qayta ishlash va tahlil qilishning metodologik xususiyatlari.* | 2 | 2 | 6 |
| 28. | **Sotsiologik tadqiqotlarda biografik metodlar.** | ***Reja:*** *1.Biografik metodning imkoniyatlari va kamchiliklari. 2.Biografik tadqiqotlarda ma'lumotlarning ob'ektivligi mezonlari. 3.Biografik ma'mulotlar manbalari. Biografik intervyu turlari.*<br><br>*4.Biografik tadqiqotlarda narrativ hikoya metodini qo'llash. Biografik tadqiqot natijalarini qo'llash sohalari.* | 2 | 2 | 6 |
| 29. | **Sotsiologiyada Internet tadqiqotlar.** | ***Reja:*** *1.Internet tadqiqotlar yutuqlari va kamchiliklariyu internet tadqiqotlarni o'tkazish tamoyillari.*<br><br>*2.Miqdoriy Internet tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish texnologiyalari.*<br><br>*3.Sifatli Internet tadqiqotlarni o'tkazish. Internet saytlar, blog va forumlarni o'rganishning metodologik xususiyatlari.* | 2 | 2 | 6 |
| 30. | **Sotsiologik tadqiqotlarda keys-stadi (case-study).** | ***Reja:*** *1.Sotsiologik amaliyotda keys metodini qo'llash xususiyatlari. 2.Keysstadi metodi bo'yicha tadqiqot turlari.*<br><br>*3.Keys-stadi metodining yutuqlari va kamchiliklari.*<br><br>*4.Keys metodining qo'llash sohalari.* | 4 | 4 | 6 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | *5. Keys-stadi natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish xususiyatlari.* | | | |
| ***Jami soat*** | | | **72** | **72** | **180** |

## 10. Talabalar bilimini baholash

<table>
<tr><th rowspan="2">Maksimal va saralash ballari</th><th colspan="2">Ma’ruza mashg‘ulotlarida 30 ball</th><th colspan="2">Amaliy, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlarida 30 ball</th><th>jami</th><th>Yakuniy nazorat</th><th>Jami</th></tr>
<tr><td>Oraliq nazoat uchun</td><td>Mustaqil ta’lim</td><td>Joriy nazorat uchun</td><td>Mustaqil ta’lim</td><td rowspan="4">60</td><td rowspan="3">40</td><td rowspan="4">100</td></tr>
<tr><td>Maksimal bal 100%</td><td>15</td><td>15</td><td>15</td><td>15</td></tr>
<tr><td>Saralash bali 60%</td><td colspan="4">Saralsh bali 36 ball</td></tr>
<tr><td>Nazoratni o‘tkazish muddati va shakli</td><td colspan="2">Fanning 70 foiz o‘zlashtirilganda (yozma)</td><td colspan="2">Amaliy mashg‘ulotlar davomida</td><td>Test</td></tr>
</table>

Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

YaB=JN+ON+YaN

Bu yerda:

JN — joriy nazorat; ON — oraliq nazorat; YaN — yakuniy nazorat.

Eslatma: dars mashg‘ultotlaridagi ishtiroki, joriy nazorat va oraliq nazoratlar uchun ajratilgan jami ballar (60 ball) ning kamida 60 foizi (36 ball)ni to‘play olmagan talabaning yakuniy nazoratga kirishiga ruxsat berilmaydi.

## 11. Akademik talablar

O‘qituvchi va talaba o‘trasidagi o‘zaro munosabat samimiy va beg‘araz bo‘lishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o‘quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi. Belgilangan muddatda bajarilmagan topshiriqlar qayta qabul qilinmaydi. O‘qituvchi talaba tomonidan bajarilgan topshiriqlarni antiplagiat dasturida tekshiradi, originallik darajasi 70 foizdan past bo‘lgan ishlar baholash uchun qabul qilinmaydi. Talabaning bajargan topshirig‘i 2 martagacha antiplagiat dasturida tekshirilishiga imkoniyat beriladi, natija talab darajasida bo‘lmasa, ish qabul qilinmaydi.

**O’quv-uslubiy boshqarma boshlig’i:** F.U.Odilov

**Fakultet dekani:** J.M. Xasanov

**“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri:** M.P.Yunusova

**Tuzuvchi:** K.A. Yunusov